ALISHER NAVOIY ASARIDAGI UYQASH (ULQASH) ISMLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Bahronova Ozoda Jo'raqulovna
NavDKTU
ozoda.bahronova@gmail.com

Annotatsiya: UshbumaqoladaAlisherNavoiyasaridauchraydiganuyqash (ulqash) ismlarlingvistik, fonetik, morfologik, grammatik va onomosiologik jihatdan chog'ishtirma tarzda tahlil etiladi. Asosan "Tarixi anbiyo va hukamo" asaridagi Jabroil, Mikoil, Azroil, Isrofil, Qobil, Hobil, Hom, Som, Faliha, Zalifa, Hind, Sind, Tolut, Jolut, Dovud, Buqrot, Suqrot kabi ismlarning tarixiy-diniy, semantik va fonetik o'ziga xosligi asosli iqtiboslar bilan yoritiladi.

Kalit so'zlar: uyqash ismlar, onomastika, etimologiya, fonetika, Tarixi anbiyo vahukamo

Abstract: This article presents a comparative linguistic, phonetic, morphological, grammatical, and onomasiological analysis of phonetically similar (paronymous) names found in the works of Alisher Navoi. The focus is primarily on the names appearing in *Tarixi anbiyo va hukamo* such as Jabroil, Mikoil, Azroil, Isrofil, Qobil, Hobil, Hom, Som, Faliha, Zalifa, Hind, Sind, Tolut, Jolut, Dovud, Buqrot, and Suqrot. Their historical-religious, semantic, and phonetic peculiarities are examined and supported with textual evidence.

Keywords: paronymous names, onomastics, etymology, phonetics, *Tarixi anbiyo va hukamo*

Аннотация: В данной статье представлен сравнительный лингвистический, фонетический, морфологический, грамматический и ономасиологический анализ фонетически схожих (паронимичных) имён, встречающихся в произведениях Алишера Навои. Основное внимание уделяется именам, встречающимся в произведении «Тарихи анбийо ва хукамо», таким как Джаброил, Микоил, Азроил, Исроил, Кабил, Хабил, Хом, Сом, Фалиха, Залифа, Хинд, Синд, Талут, Джалут, Давуд, Букрот и Сукрот. Рассматриваются их историко-религиозные, семантические и фонетические особенности, подтверждённые текстовыми источниками.

Ключевые слова: паронимичные имена, ономастика, этимология, фонетика, «Тарихи анбийо ва хукамо»

KIRISH

Alisher Navoiy o'zining mashhur asari — *Tarixi anbiyo va hukamo*da payg'ambarlar, hukamolar, farishtalar, ajdodlar va tarixiy shaxslar hayotidan hikoya qiladi. Asarda ko'plab uyqash (ulqash) ismlar uchraydi. Bu ismlar nafaqat diniy va tarixiy mazmunga ega, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham tahlil

ISSN 3030-3907

qilishga arzigulik antroponimik birliklar hisoblanadi. Jumladan, Jabroil, Mikoil, Azroil, Isrofil, Qobil, Hobil, Hom, Som, Faliha, Zalifa, Hind, Sind, Tolut, Jolut, Dovud, Buqrot, Suqrot kabi ismlar semantik mazmuni, fonetik ohangdoshligi va tarixiy-raviy jihatlari bilan bir-biriga bog‘lanadi. Ushbu maqola mazkur ismlar tahliliga bag‘ishlanadi.

ASOSIY QISM

Jabroil, Mikoil, Azroil, Isrofil antroponimlari Farishtalar ismlari Qur’oni karimda va diniy rivoyatlarda muhim rol o‘ynaydi. Alisher Navoiy o‘zining “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida bu ismlarni nafaqat diniy voqealarga tayangan holda, balki falsafiy ma’no va obrazli timsollar orqali ham yoritadi. Jabroil ibroniycha “Gavri'el” → “Allohning qudrati” (جبر + ئيل), Mikoil ibroniycha “Mikha'el” → “Allohga o‘xshash kim bor?”, Azroil ibroniycha “Azra'el” → “Allohning yordami” yoki “xizmatkori”, Isrofil ibroniycha “Rapha'el” → “Alloh davolaydi” yoki “Allohning shifo beruvchisi” ma’nolarni anglatadi.Barchasi ibroniy tilidan o‘zlashgan, arab tili orqali o‘zbek tiliga o‘tgan. O‘zbek tilida diniy-religioz semantik qatlamda mustahkam o‘rnashgan. Har biri murakkab morfematik tarkibga ega: Jabr + il, Mik + il, Azr + il, Isr + il. "-il" (ئيل) elementi ilohiylikni bildiruvchi affiks sifatida takroran qo‘llaniladi. Jabroil vahi yetkazuvchi farishta, Mikoil rizq va tabiat farishtasi, Azroil o‘lim (jon olish) farishtasi, Isrofil qiyomatda sur chalaydigan farishta hisoblanadi.

Bu ismlar orqali tangri irodasining turli ko‘rinishlari ilhom, hayot, o‘lim va qayta tirilish yoritiladi.

Fonetik jihatdan barcha ismlar uyqash va ohangdor, oxiri -il bilan yakunlanadi. Jabroil [ʤab.ro.ʔil], Mikoil [mi.ka.ʔil], Azroil [ʔaz.ra.ʔil], Isrofil [ʔis.ro.fi:l]

Iqtiboslar:"Жабраил а.с. қайтиб анинг сўзин арз қилди эрса, Микойилға ҳукм бўлди. Ул дағи ердин ҳам андоқ онт эшитиб қайтди, эрса, Исрофилға ҳукм бўлди.Ул ҳам ул икининг узри била қайтқондин сўнгра Азроилға буйруқ бўлдиким, ердин туфроқ кетургай. Ер Азроилға онт бергандин сўнгра Азроил айттиким, ҳақ субҳона ва таолонинг амри санинг онтингдин юқорироқдур..." [Manba: Tarixi anbiyo va hukamo, 16-jild, 98-bet]

Jabroil, Mikoil, Azroil, va Isrofil — bu ismlar islom dini falsafasining muhim tushunchalarini ifodalovchi onomastik birliklardir. Ular etimologik jihatdan ilohiy fazilatlarni, morfologik jihatdan bir xil tuzilmalarni, fonetik jihatdan esa uyqash va ohangdor tuzilmani namoyon etadi. Navoiy ularni o‘z asarida tushunchaviy tugal mazmun bilan, aniq tarixiy-islomiy kontekstda tasvirlaydi. [Manba: Tarixi anbiyo va hukamo, 16-jild, 98-bet]

ISSN 3030-3907

Qobil v Hobil antroponimlari. Alisher Navoiy o‘zining *Tarixi anbiyo va hukamo* asarida ilk inson zotining o‘g‘illari — Qobil va Hobil haqida hikoya qiladi. Ularning voqeasi nafaqat diniy tafsir, balki axloqiy, falsafiy va tarixiy mazmunga ega. Bu ikki ism qarama-qarshi obrazlar — ya’ni zo‘ravonlik va sabr, qotillik va fidokorlik, hasad va halollikni ifoda etadi. Bu ikki ism Bibliya va Qur’on rivoyatlarida muhim o‘rin tutadi. Qobil Ibroniycha “Qayin” (arabchada: Qābil) – “egalik qiluvchi”, “aralashuvchi” yoki “qotil” ma’nolarida talqin qilinadi. Hobil Ibroniycha “Hevel” (arabchada: Hābil) – “nafas”, “beqarorlik”, “foniylik” ma’nolarini bildiradi.Ikkala ism ham ibroniy tilidan arab tiliga, so‘ngra islomiy matnlar orqali turkiy tillarga o‘tgan. O‘zbek tilida xalq og‘zaki ijodi orqali mustahkam joylashgan .Ikkalasi ham turkiy otlar tizimida so‘z o‘zgartiruvchi yoki yasovchi morfemalarsiz qo‘llaniladi.Qobil hasadgo‘y, g‘azabga berilgan shaxs.Birinchi qotil sifatida eslanadi.Hobil qonunbozlikka sodiq, Allohga yaqin, qurbonligi qabul bo‘lgan sabrli inson. Bu ism juftligi insoniy ziddiyatlar, axloqiy tanlovlar va qadriyatlar ramzidir.Ergashuvchili shakllarda ishlatiladi: *Qobil ukasini o‘ldirdi*, *Hobilning qurbonligi qabul qilindi*.Tarixiy rivoyatlar, doston va diniy matnlarda keng qo‘llanadi.Qobil [qo:.bil], Hobil [ho:.bil] Har ikkala ism bir xil bo‘g‘in soni (2) va tugash shakli -bil bilan fonetik uyg‘unlik hosil qiladi. Uyqash ismlar sifatida doston va og‘zaki hikoyalarda esda qolarli.Iqtiboslar:*«Қобил била туғғон қизни оти Иқлимо деб дурлар. Тиладиким, Ҳобилгаберғай. Қобил ўз синглининг ҳусни жиҳатидин анга мойил эрди. Ҳобилнинг қурбони қабул тушуб, Қобил хусумат жиҳатидин Ҳобилди ҳалок қилиб, авва лкишиким, ноҳақ қо нқилди, Қобил эрди» [*Manba: *Tarixianbiyovahukamo*, 16-jild, 102-bet]/ *«Қобилдафннибилмасэди. Икималакни қарға сурати била Қобил қошиға йиборди. Бири яна бирини ўлтурди ва қотил қарға ерни тирнаб, бирини дафн қилди. Қобил бу таълимни олғоч, Ҳобилни гўр қазиб дафн қилди.»* Manba: *Tarixianbiyovahukamo*, 16-jild, 103-betQobil va Hobil ismlari diniy, tarixiy va axloqiy jihatdan insoniyat ongida chuqur iz qoldirgan obrazlardir. Ular fonetik va morfologik jihatdan uyg‘un, semantik jihatdan esa mutlaqo zid ma’nolarni ifodalaydi. Alisher Navoiy bu ism juftligini o‘z asarida diniy tarixni insoniy tanlovlar bilan uyg‘unlashtirgan holda yuksak badiiy vositalar bilan ifodalagan.

Hom va Som antroponimlar. i Alisher Navoiy o‘zining *Tarixi anbiyo va hukamo* asarida qadimgi payg‘ambarlar va ularning zurriyotlari, ajdodlari haqida yozarkan, Nuh alayhissalomning ikki o‘g‘li — Som va Hom ismlarini tilga oladi. Bu ismlar faqat tarixiy emas, balki antroponim, ya’ni inson nomi sifatida ko‘plab etnik, madaniy va diniy ramzlarni o‘zida mujassam etadi. Quyida bu ikki ismning tahlili keltiriladi.Som ibroniycha “Shem”dan o‘zlashgan; “ism”, “nishon”, “shon” ma’nosini bildiradi.Hom ibroniycha “Ham”dan kelib chiqqan; “issiqlik”, “qora”,

ISSN 3030-3907

“yonuvchi” ma’nosini bildiradi. Afrikaga nisbat bilan bog‘liq.Har ikki ism Semit tillaridan, xususan ibroniy tilidan arab va fors tillari orqali turkiy tillarga kirib kelgan.Navoiy ularni o‘zbek adabiy tiliga mos shaklda ishlatgan.Som arab va yahudiy xalqlarining ajdodi sifatida tilga olinadi. “Abul-Ajam” (ajamlar otasi) laqabi berilgan.Hom hindlar, afrikaliklar, qora tanlilar otasi.“Abul-Hind” deb ham ataladi.Som [so:m], Hom [ho:m]. Har ikki ism bir bo‘g‘inli bo‘lib, fonetik jihatdan kuchli ohangdorlikka ega. Ular uyqashbo‘lib, muqoyasa, qafiya va qasddan fonetik uyg‘unlik yaratish uchun ishlatilgan.Iqtiboslar: *«СомбинниНуҳнидедилар. Тиргузким, мавтидинтўртмингнилўтубэрди, анингқабрибошиғабориб, Исоа.с. иккиракъатнамозқилиб, дуоқилди...»* 176-bet*«...Som ibn Nuh... Somning 9 o‘g‘li: Kayumars, Arfaxshad, Basti, Qahiton (arablar naslidan)...»«Homning 9 o‘g‘li: Hind, Sind, Nuba, Kan’on, Kush, Qibt, Barbar, Rih, Habash»*Som va Hom ismlari fonetik uyg‘unligi, tarixiy-diniy mazmuni, hamda xalq ongi va milliy madaniyatda tutgan o‘rni bilan ajralib turadi. Som — ilm, hikmat va payg‘ambarlik naslini; Hom — issiqlik, janubiy xalqlar, kuch va ko‘p sonlilikni ifodalaydi. Alisher Navoiy bu ismlar orqali insoniyatning irqiy, madaniy va diniy tarqalishini tarixiy shaxslar bilan bog‘lab bayon qiladi.

Faliha va Zalifaantroponimlari. Alisher Navoiy o‘zining *Tarixi anbiyo va hukamo* asarida Ya’qub alayhissalomning nasli, xotinlari va kanizaklari haqida so‘z yuritar ekan, ikki ayol ismini alohida tilga oladi — Faliha va Zalifa. Bu ismlar o‘z zamonasida nafaqat tarixiy-biografik belgilar, balki onomastik obrazlar timsoli sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Falihaarabcha “falāḥa” – “yaxshi bo‘lgan ayol”, “muvaffaq” ma’nosidan kelib chiqqan. Zalifa arabcha “zulfa” ildizidan: “yaqinlik”, “mehrli”, “do‘stona” degan ma’noga ega.Har ikkala ism arabcha kelib chiqishga ega bo‘lib, o‘zbek tilida ayollar ismi sifatida qabul qilingan. Ular she’riy til, tarixiy-biografik rivoyatlar, vanasabnomalarda keng qo‘llanadi.Arabcha kelib chiqishiga qaramay, o‘zbek tilida so‘zlashuv darajasiga moslashgan.Talaffuzi: Faliha [fa.li.ha], Zalifa [za.li.fa]. Ikkala ismda ham “li”bo‘g‘ini o‘xshashlik yaratib, uyqash ta’sir kuchini oshiradi.Iqtiboslar: *"Faliha (Layyoning kanizakidir). Ya’qub a.s ning o‘g‘illari Falihadan: Don, Nafqol." Manba: Tarixi anbiyo va hukamo*, 16-jild, 274-bet

"Zalifa (Layyoning kanizakidir). Ya’qub a.s ning o‘g‘illari Zalifadan: Kov, Ashira."Manba: Tarixi anbiyo va hukamo, 16-jild, 274-betFaliha va Zalifa ismlari Alisher Navoiy tilida nafaqat tarixiy ayol obrazlarini ifodalaydi, balki ular orqali nasl, e’tiqod va insoniylik timsollari ham aks etadi. Har ikkala ism arabcha ildizga ega bo‘lsa-da, o‘zbek tilida uyqashlik, ma’no uyg‘unligi, va fonetik musiqiyligi

ISSN 3030-3907

bilan o‘z o‘rnini topgan. Bu ismlar orqali Navoiy o‘z asarida nafaqat tarixiy rivoyatni, balki insoniyat ajdodlarining axloqiy nasabini ham ifodalaydi.

Hind va Sind antroponimlari. Alisher Navoiy o‘zining *Tarixi anbiyo va hukamo* asarida insoniyatning nasl-nasabini o‘rganish davomida Nuh alayhissalomning o‘g‘li Homdan tarqalgan avlodlarni sanab o‘tadi. Ular orasida HindvaSind nomlari alohida tilga olinadi. Bu ismlar nafaqat geografik hududlar, balki etnik va tarixiy shaxs sifatida nomlash hodisasi bo‘yicha muhim onomastik birlikdir.Hind sanskritcha “sindhu”dan kelib chiqqan.“Katta daryo” ma’nosini bildiradi.Arab tilida Hind – Hindiston degan ma’noda ishlatiladi.Sind sanskritcha “sindhu” – Hind daryosi.Arabcha talaffuzda “Sind” shakliga o‘zgargan. O‘sha daryo va hudud nomi. Har ikkala ism sanskrit ildizli bo‘lib, arab tili orqali o‘zbek tiliga kirib kelgan. O‘zbek tilida etnik-hududiy nomlar sifatida ishlatiladi. Tarixiy kontekstdan kelib chiqqan holda, ular inson nomi shaklida onomastik ahamiyat kasb etadi. Ikkalasi ham bir bo‘g‘inli, affikssiz otlardir. Mustaqil so‘zlar sifatida ishlatiladi, ayniqsa nasabda yoki yer nomi sifatida.Hind Homning o‘g‘li sifatida Hind xalqlarining ajdodi.“Abul-Hind” (hindlar otasi) maqomi beriladi. SindSind daryosi bo‘yidagi xalqlarning ajdodi sifatida tilga olinadi. “Sindiy” etnik identifikatoriga asos. Bu ismlar milliy-genealogik nomlash asosida tanlangan bo‘lib, butun xalqlar tarixi bilan bog‘langan.Talaffuzi: Hind [hind], Sind [sind]. Fonetik jihatdan ular uyqash (ulqash) bo‘lib, tarixiy matn va she’riy asarlarda qasddan yaqinlik uchun tanlangan bo‘lishi mumkin.Iqtiboslar: *«Homning 9 o‘g‘li: Hind, Sind, Nuba, Kan’on, Kush, Qibt, Barbar, Rih, Habash...»*Manba: *Tarixi anbiyo va hukamo*, 16-jild, 274-betHind va Sind ismlari tarixiy, geografik, onomastik va fonetik jihatdan o‘zaro uyg‘un va uyg‘unlashtirilgan nomlardir. Navoiy ularni shunchaki daryo yoki hudud sifatida emas, balki xalq va nasl ajdodlari sifatida tasvirlaydi. Bu orqali u insoniyatning geneologik ildizlarini farqlab, har bir xalqning tarixiy asosiga hurmat bilan qarash zaruratini bildiradi.Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu ismlar onomastik tizimdagi muhim chog‘ishtirma birliklar hisoblanadi.

Tolut, JolutvaDovudantroponimlari. Alisher Navoiy o‘zining *Tarixi anbiyo va hukamo* asarida Bani Isroil tarixida muhim o‘rin egallagan shaxslar — Tolut, Jolut, va Dovud alayhissalom haqida hikoya qiladi. Ushbu shaxslar xalq rahbarlari, dushmanlarga qarshi kurashchilarvapayg‘ambar-podshohlar sifatida tarixda iz qoldirgan. Ularning ismlari semantik va fonetik jihatdan yaqin, qahramonlik va ma’naviylik timsollariga aylangan.Tolut arabcha “Tālūt” – baland bo‘yli, qudratli (ebroniycha “Shaul”dan), Jolut arabcha “Jālūt” – Goliat (ibroniycha “Golyat”), bahaybat dushman, Dovud arabcha “Dāwūd” – “sevimli”, “mahbub”

ISSN 3030-3907

(ibroniycha “David”)Ismlar ibroniy tildan arab tiliga, so‘ngra islomiy manbalar orqali o‘zbek tiliga o‘tgan. Ular Qur’oni karimda va tafsir matnlarida keng uchraydi.Tolut Bani Isroilning sodiq podshohi, ilohiy tanlov orqali tayinlangan ma’nosiga ega, Jolut Tolutga qarshi chiqqan bahaybat dushman, zolim ma’nosiga ega, Dovud Jolutni yenggan yosh qahramon va keyinchalik podshoh-payg‘ambar. Ular o‘zaro tarixiy munosabatda: Tolut (rahbar), Jolut (dushman), Dovud (g‘olib qahramon). Ko‘proq tarixiy va diniy kontekstdagi otlar sifatida ishlatiladi. Masalan: *Tolut podshoh*, *Jolut dushmani*, *Dovud alayhissalom*.Talaffuzi :Tolut [ta:.lu:t], Jolut [dʒa:.lu:t], Dovud [da:.wu:d]. Uch ismda ham cho‘zilgan unli (-ut/-ud) mavjud bo‘lib, bu ularni fonetik jihatdan uyqash qiladi.Iqtiboslar: *“Довуда.с. Жолутниҳалокқилиб, Толутининг подшоҳлигига яроқли эканини исботқилди...”*Manba: *Tarixi anbiyo va hukamo*, 16-jild, 158-bet*“...Довуда.с. Жабраил таълими билаУрёқабрибошиғабориб... Довуда.с. гуноҳиафвбўлиб, мулкишигашуруъқилди...” [Tarixianbiyovahukamo*, 16-jild, 158–159-betlar] Tolut, JolutvaDovudismlario‘zarotarixiyvoqealargabog‘langanbo‘lib, AlisherNavoiyularnie’tiqod, sinov, adolatvajasoratramzlarisifatidatasvirlaydi. Fonetik jihatdan ular cho‘zilgan unli bilan tugallanuvchi, kuchli urg‘uli va ohangdor ismlar hisoblanadi. Morfologik va semantik jihatdan esa ular rahbar – dushman – g‘olib zanjiri orqali inson irodasi va ilohiy qadriyatlarni ifoda etadi.

Buqrot,Suqrotantroponimlari. Alisher Navoiy o‘z asarida diniy va tarixiy shaxslar bilan bir qatorda falsafiy tafakkur egalarini — ya’ni donishmandlarni ham alohida ehtirom bilan tilga oladi. Shulardan eng mashhurlari — Buqrot (Hippokrat) va Suqrot (Sokrat). Ular yunon falsafasining ramzlari bo‘lib, Navoiyning “hukamo” bo‘limida, eng avvalgi madaniyat asoschilaridan sifatida zikr etiladi. Ularning ismlari tilshunoslik va onomastik nuqtayi nazardan ham e’tiborga molikdir.Buqrot Arabchalashtirilgan shakli. Aslida "Hippokrat" (Ἱπποκράτης) — "ot kuchi" yoki "ot bilan bog‘liq hokimiyat" degan yunoncha ma’noga ega. Suqrot Arabcha talaffuzi “Suqrot” (aslida "Sokrat", yunoncha Σωκράτης) — “aqlli hokimiyat” yoki “donolik kuchi” ma’nosida.Har ikkala ism ham yunon tilidan arab tiliga, so‘ngra islom ilmiy an’analari orqali o‘zbek tiliga kirib kelgan. Ular islom madaniy falsafasi doirasida e’tirof topgan.Buqrot tibbiy fan asoschisi. “Hikmat” va “ilohiy shifo” ramzi. Suqrot Falsafa asoschisi. “Muloqot, sof tafakkur, ma’naviy poklik” ramzi. Navoiy bu ismlar orqali ilm-falsafa tarixidagi asos soluvchilarni ko‘rsatadi.Talaffuzi: Buqrot | [bu.qro:t], Suqrot [su.qro:t] Iqtiboslar:“Буқротис ҳаким. Буқротис Буқрот шогирдларидиндур. Анинг сўзларидирким, шариф илм кўнгулда қарор тутмас... Яхши сўз кўнгулни ёрутур...” Manba: Tarixi anbiyo va hukamo, 16-jild, 190-bet

ISSN 3030-3907

“Суқрот ҳаким Букротиснинг шогирдидур... Сўзларидандурким: нодонга тавозуъ қилмоқ ҳанзалға сув бермакдурким...” Manba: Tarixi anbiyo va hukamo, 16-jild, 190-betBuqrot va Suqrot — tarixiy donishmandlar bo‘lib, ularning ismlari tilshunoslik, madaniyat va tafakkur tarixida muhim o‘rin tutadi. Navoiy ularni o‘z asarida e’tirof etib, tibbiy va falsafiy tafakkur negizini ular orqali ochib beradi. Fonetik jihatdan ular uyqash va og‘zaki ijodga mos keladi. Morfologik jihatdan esa — mustaqil ot bo‘lib, ilm, tafakkur va hikmat timsollariga aylangan.

XULOSA

Tarixi anbiyo va hukamo asarida uchraydigan uyqash ismlar Alisher Navoiy tomonidan diniy, axloqiy, tarixiy va falsafiy kontekstda chuqur obrazlangan. Fonetik jihatdan ular uyqash, morfologik jihatdan o‘xshash, etimologik jihatdan esa ko‘p tillardan kirib kelgan. Bu ismlar orqali insoniyat tarixi, axloqi, e’tiqodi va ilmiy tafakkuri mujassamlashtirilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Navoiy nom tanlashda fonetik uyg‘unlik, semantik mazmun va tarixiy kontekstni chuqur inobatga olgan.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. *Tarixi anbiyo va hukamo*. 16-jild. — T.: Fan, 2021.
2. A. Mallaev. *Navoiy hayoti va ijodi*. — T.: O‘zbekiston nashriyoti, 2000.
3. M. To‘raev. *Islom onomastikasi asoslari*. — Samarqand: Ma’naviyat, 2015.

ISSN 3030-3907